



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHI RAISING F A R M O Y I S H I

2025-yil 14-avgust

13-11-163-F/25

Farg‘ona tumani

Yettinchi chaqiriq Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining navbatdagi 11-sessiyasini chaqirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N :

- I. Yettinchi chaqiriq Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining navbatdagi 11-sessiyasini 2025-yil 21-avgust kuni soat 09.00ga chaqirilsin.
- II. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qarori ijrosi bo‘yicha tumanda 2025-yilning yanvar-iyun oylari davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimi X.Inomovning hisoboti to‘g‘risida;

(Mas‘ul: “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha” doimiy komissiyasi)

(Hisobot beruvchi: tuman hokimi X.T.Inomov)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-tamoillarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-17-sonli farmoni asosan tuman hokimligi huzurida tashkil etilgan “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida;

(Mas‘ul: “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha” doimiy komissiyasi)

(Hisobot beruvchi: tuman hokimining o‘rinbosari O.N.Abduraximov)

3. 2025-yilda Farg‘ona tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining 2-chorakdagi ijrosi to‘g‘risida;

(Mas‘ul: “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha” doimiy komissiyasi)

(Hisobot beruvchi: tuman hokimining o‘rinbosari O.N.Abduraximov)

4. Tuman mahalliy byudjetining 2025-yil 2-chorak yakuni bilan shakllangan qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida;

(Mas‘ul: “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha” doimiy komissiyasi)

(Hisobot beruvchi: tuman hokimining o‘rinbosari O.N.Abduraximov)

5. O‘zbekiston “Adolat” SDP guruhi ish rejasiga ko‘ra, “Farg‘ona tuman tibbiyot birlashmasida bolalar o‘rtasida kuzatilayotgan “yassioyoqlik” va “skolioz” kasalligi bilan kasallanish holati, kasalliklarni oldini olish hamda davolash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida”;

(Mas‘ul: “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi)

(Hisobot beruvchi: tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i X.Toshboev)

6. O‘z LiDeP partiya guruhi ish rejasiga ko‘ra, Farg‘ona tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi bo‘limi tomonidan 2025-yil 6 oy yakuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabrdagi "Aholining ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi PQ-319 sonli Qarori ijrosi bo‘yicha "Inson" ijtimoiy xizmatlar Markazi Farg‘ona tuman bo‘limi tomonidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida;

(Mas‘ul: “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi)

(Hisobot beruvchi: “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tuman bo‘limi boshlig‘i U.Yuldashev)

7. O‘z LiDeP partiya guruhi ish rejasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror va Farmonlari hamda budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Farg‘ona tumani bo‘limi faoliyatiga oid nomativ-huquqiy xujjatlar bo‘yicha 2025-yil 6 oy davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida;

(Mas‘ul: “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi)

(Hisoboti beruvchi: budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Farg‘ona tuman bo‘limi boshlig‘i O.Tuxliev)

8. Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashning 2025-yil 28-iyun kungi VII-9-58-11-163-K/25-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida;

(Mas‘ul: “Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta‘minlash va huquqiy masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi)

(Hisobot beruvchi: tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i v.v.b. R.Sobirov);

9. Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi deputatlarining o‘z saylovchilari oldidagi mas‘uliyatini va hisobdorlik hissini yanada oshirish, deputatlik faoliyatining ochiqqligini, aholining xabardorligini kuchaytirish haqida;

(Mas‘ul: “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi)

(Axborot beruvchi: tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi O.Dadajonova)

10. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida;

(Mas‘ul: “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi)

(Axborot beruvchi: tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi O.Dadajonova)

11. Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashning 2025-yil 20-fevral kungi VII-5-24-11-163-K/25-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida;

(Mas‘ul: “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi)

(Axborot beruvchi: tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi O.Dadajonova)

- III. Tuman Kengashiga saylangan deputatlari sessiya boshlanishidan yarim soat avval kelishi va sessiya tugaguniga qadar sessiyani tark etmasliklari haqida ogohlantirilsin.
- IV. Sessiyaga **tuman hokimi o‘rinbosari, masalalarga daxldor korxona va tashkilot rahbarlari, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda bloggerlar** taklif etish tuman hokimligining tashkiliy kadrlar bo‘limi boshlig‘ zimmasiga yuklatilsin.
- V. Ushbu qaror Farg‘ona tuman hokimligining rasmiy veb sayti va ommaviy axborot vositalari orqali e‘lon qilish hamda tuman Kengashining navbatdagi 11-sessiyasini OAVlarida jonli efirda yoritish tuman hokimligining Axborot xizmati rahbari (A.Ergashev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO
TADJIYEVICH